5. Shodiev Shahobiddin Sharofiddinovich. (2022). PHILOSOPHICAL WORDS AND THE CONCEPT OF NATURE AND SOCIETY IN THE TRAGEDIES "MACBETH" AND "ABULFAYZ KHAN". EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(13), 925–931. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7472725>
6. Shodiev Shahobiddin Sharofiddinovich. (2022). MEANS OF LEXICAL-SEMANTIC EXPRESSION OF THE PHILOSOPHY OF HUMANISM AND SPIRITUAL-MORAL CONCEPTS IN THE DRAMAS OF U. SHAKESPEARE AND A. FITRAT. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(13), 966–970. <https://doi.org/10.5281/zenodo.747273>



OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA MULOQOT AHAMIYATI.

BAHRONOVA Mavluda O'tkir qizi

Buxoro innovatsion ta'lism va
tibbiyot universiteti o'qituvchisi
bahronovamavluda92@gmail.com

Tel: +998993373971

Annotations

Kirish: Ushbu maqolada oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot, er va xotin munosabatlari, oilada ijtimoiy psixologik muhit, er-xotin munosabatlari, aka-uka, opasingil, qarindoshlar muloqoti masalalari, muammolarini o'rganish har doim insoniyat jamiyat taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat markazida bo'lib kelganligi ilmiy asoslar orqali yoritildi. Bundan tashqari oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, oilaning ham jamiyat oldida o'ziga xos vazifalari borligi ta'kidlanadi.

MAQSAD: Oilalarda barkamol farzandlarni voyaga etqazishda muloqot va munosabatning o'rni qay darajada ekanligi va har birimiz farzandlarimiz bilan muomala qilayotganda nimalarga ahamiyat berishimiz kerakligini ta'kidlaydi.

MATERIALLAR VA METODLAR: Oilada shaxslararo munosabatlar, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat va ishonch asosida quriladi. Oilaviy muloqotlarning ahamiyati nafaqat oilaning ichki barqarorligini ta'minlash, balki uning a'zolarining ruhiy salomatligi va jismoniy farovonligi uchun ham muhimdir. Yaxshi muloqot oilada xavfsizlik va tinchlikni yaratadi, muammolarni hal etishda samarali bo'lishi mumkin. Bu esa o'z navbatida oilaning kuchli va sog'lom bo'lishini ta'minlaydi.

XULOSA: Oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot oilaning jipsligi va mustahkamligini, oilaning barqarorligini, o'zaro hurmatni va tinchlikni ta'minlaydi. Yaxshi muloqot orqali oila ichidagi muammolarni hal qilish, a'zolar o'rtasidagi tushunishni oshirish va umumiy farovonlikni ta'minlash mumkin. Shaxslararo munosabatlarning rivojlanishi, oilaning ruhiy va jismoniy holatini yaxshilashda hamda jamiyatdagi muvaffaqiyatli shaxslar sifatida shakllanishda katta ahamiyatga ega. .

KALIT SO'ZLAR: Jamiyat, oila, nikoh, shaxslararo munosabat va muloqot, psixologik muhit, madaniyat, emotsiyonal holat, axloq, qadriyatlar, ta'lism-tarbiya, farzandlar kamoloti.

Annotation

Introduction: This article examines interpersonal relationships and communication within the family, including the relationship between husband and wife, the social-psychological environment in the family, and the communication between siblings and relatives. The importance of studying these issues has always been a focus of the scientific community throughout human civilization's progress. Additionally, it emphasizes the unique role of the family as the foundation of society and its specific responsibilities before society.

Objective: The article emphasizes the significance of communication and relationships in raising well-rounded children and highlights the aspects that need to be considered when interacting with our children.

Materials and Methods: Interpersonal relationships within the family are built on mutual respect, love, and trust. The importance of family communication is crucial not only

for ensuring the internal stability of the family but also for the mental health and physical well-being of its members. Effective communication creates security and peace within the family and can be instrumental in solving problems. This, in turn, ensures the strength and health of the family unit.

Conclusion: Interpersonal relationships and communication within the family ensure its unity and stability, maintaining mutual respect and peace. Through good communication, family issues can be resolved, understanding between members can be enhanced, and overall well-being can be achieved. The development of interpersonal relationships is crucial for improving the mental and physical state of the family and contributes significantly to the formation of successful individuals in society.

Keywords: Society, family, marriage, interpersonal relationships and communication, psychological environment, culture, emotional state, ethics, values, education, child development.

Аннотация

Введение: В данной статье рассматриваются вопросы межличностных отношений и коммуникации в семье, включая отношения между мужем и женой, социально-психологическую атмосферу в семье, а также взаимоотношения между братьями и сестрами, родственными связями. Изучение этих вопросов всегда было в центре внимания научного сообщества на протяжении всей истории развития человеческого общества. Кроме того, подчеркивается, что семья является основой общества, и она имеет свои уникальные обязанности перед обществом.

Цель: Статья акцентирует внимание на значении коммуникации и взаимоотношений в воспитании гармонично развитых детей, а также подчеркивает, на что следует обращать внимание при общении с детьми.

Материалы и методы: Межличностные отношения в семье строятся на основе взаимного уважения, любви и доверия. Важность семейной коммуникации заключается не только в обеспечении внутренней стабильности семьи, но и в психическом и физическом благополучии ее членов. Эффективная коммуникация создает безопасность и мир в семье и может быть эффективным инструментом для решения проблем. Это, в свою очередь, обеспечивает силу и здоровье семьи.

Заключение: Межличностные отношения и коммуникация в семье обеспечивают ее единство и стабильность, взаимное уважение и мир. Через хорошую коммуникацию можно решать семейные проблемы, улучшать взаимопонимание между членами семьи и обеспечивать общий благополучие. Развитие межличностных отношений играет важную роль в улучшении психоэмоционального и физического состояния семьи и способствует формированию успешных личностей в обществе.

Ключевые слова: Общество, семья, брак, межличностные отношения и коммуникация, психологическая атмосфера, культура, эмоциональное состояние, мораль, ценности, воспитание, развитие детей.

Oiladagi shaxslararo munosabatlar, har bir a'zoning ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi. Bu munosabatlarning rivojlanishi uchun doimiy ravishda o'zaro o'zgarishlar, yangi fikrlar va hissiyotlar bilan moslashish zarur. Oila ichidagi odamlar bir-birining his tuyg'ulariga hurmat ko'rsatishi, samimi bo'lishi va tushunishli munosabatlarni

rivojlantirishi kerak. Shaxslararo munosabatlar oilada to'g'ri qarorlar qabul qilish, jiddiy masalalarni hal qilishda muhim o'rinni tutadi.

Masalan, ota-onalar o'rtaсидаги muloqot oilaning barqarorligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. O'zaro muloqot orqali ota-onalar bolalarga hayotdagi muhim qadriyatlarni, axloqiy me'yirlarni o'rgatishi, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatishi mumkin. Muloqotning psixologik tomoni ham muhimdir. Oilada doimiy va salbiy munosabatlar, ruhiy salomatlikka zarar etkazishi mumkin. O'zaro hurmat va ishonchga asoslangan muloqot, a'zolarning stressni kamaytirishi, ularni bir-biriga yaqinlashtirishi va turli muammolarni hal qilishda yordam beradi. Oiladagi kommunikatsiya qobiliyati, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Agar oila a'zolari bir-birlarini tinglashga, o'z fikrlarini ochiq aytishga va maslahat olishga tayyor bo'lsa, ular nafaqat o'zaro munosabatlarini kuchaytiradi, balki jamiyatda ham muvaffaqiyatli muloqot qiladigan shaxslar sifatida o'sishi mumkin.

Yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o'ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo'lgan er-xotin munosabatlari boshqa bir er-xotinga mos kelmasligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va muloqot muhim omil hisoblanadi. Muloqot madaniyatiga birinchidan, o'z-o'zini bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, ya'ni ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olish, ikkinchidan, ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos (adekvat) munosabat bildira olish, uchinchidan, har bir odamga nisbatan uning shaxsining individual xususiyatlariga eng ma'qul keladigan muloqot shakli, usuli va stillarini tanlay bilish kiradi. Muloqot madaniyatini oshirish uchun odamda ilk yoshlikdan boshlab boshqa odamlarga hurmat va samimiyat bilan munosabatda bo'lishni, ularga hamhardlik, insonparvarlik, mehribonlik qilish qobiliyatlarini shakllantirib borish kerak bo'ladi. Muloqot eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi, unda dastlabki o'zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma'lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan bevosita emotSIONAL munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Muloqotda buyruq ohangining ustunligi, do'q-po'pisa ohangida keskin shaklda muomalada bo'lish, suhabatdosh nomiga tez-tez bildirilib turiladigan e'tirozlar, uning xatti-harakati va fikrlaridan norozilikni ifodalash, yo'l bermaslik va tajovuzkorlikni namoyon qilish, oilada o'zaro raqobat (yoki hukmronlik-bo'ysunuvchanlik) munosabatlarini yuzaga keltiradi. [1] Shunday holatlar yuzaga kelmasligi uchun biz nikoh arafasida turgan yoshlarimizni nafaqat jisman, balki ma'nani ham aqliy salohiyati, shaxslararo munosabat va muloqot madaniyatini ham oshirishimiz lozim. Oilaviy nizolarning asl sababi shaxslararo munosabat va oila a'zolarining muloqotmandligi kam ekanligidan kelib chiqyapti.

Psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarning

quyidagilarini farqlaydilar: psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivatsion to'siqlardir. Psixologik to'siq — bu sherigiga ma'qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo'rqish, u tomondan inkor etilish va kalaka qilinishdan yoki keskinlikdan qo'rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini samimiy izhor etishiga javoban qo'pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlanish kabilar tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga xalaqit beruvchi, o'ziga xos ichki psixik tormozdir. Vaziyatli to'siqlar — bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushunishlari, unga turlicha yondashishlari bilan bog'liq. Mazmuniy to'siqlar — odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlesi qanday ma'noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari surayapti, nimani nazarda tutayapti, nimaga olib boradi va shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.

Motivatsion to'siqlar — shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapi rayotgan odam yo o'zi bayon qilayotgan fikrning motivini etarlicha anglay olmaydi yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo'lishi mumkin. Bulardan tashqari muloqotga to'siq bo'lib, suhbatdoshlarni psixologik madaniyatilik nuqsonlaridan biri, ya'ni ularning na eshitishni va na tinglashni bilmasligi, «teskari aloqaning» yo'qligi xizmat qilishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi suhbat ko'pincha ularda aqlning etishmasligi tufayli emas, balki ularning xudbinligi tufayli: har biri o'zi haqida yoki o'zini qiziqtiradigan masalalar haqida gapi rayishga intilishligi tufayli kutilganidek amalga oshmay qolishi mumkin. Oqibatda bitta «aqli» dialog o'rniga, ikkita behuda, hatto zararli monolog amalga oshadi. Shuning uchun ham muloqotga, suhbatlashish san'atini o'rganish, ijtimoiy-psixologik madaniyatni egallash, o'zi, o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqara olish, bilim va malakalarini ishlab chiqish o'z gapi bilan suhbatdoshini qiziqtira olish qobiliyatini rivojlantirishga erishish kerak. Biroq, buning uchun birinchi navbatda har qanday muloqotning umumiyligi qoidasi: boshqa odamlarning, o'z suhbatdoshlarining ehtiyojlari, xohishlarini qondira oladigan odamgina hurmatga erisha olishligini yodda tutishi lozim. [1] Yangi tahrirdagi Konstitutsianing 76-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi" degan normalar aks etgan. [2] Haqiqattan ham, o'zbek xalqida oila ne'mati doimo aziz tutilgan, qo'ydi-chiqdilar va ajrimlar jiddiy qoralangan, "er-xotin ajrashsa arshning kursisi zir titraydi", deyishgan. Oila tushunchasi bundan keyin ham bizda muqaddas bo'lib qolishiga ishonchimiz komil.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi." Bu fikr orqali yurtboshimiz shaxslararo munosabat va muloqot ijtimoiy taraqqiyotdagagi muhim hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Oilaviy munosabatlar tizimi juda murakkab va ancha teran mazmunga ega bo'lib, o'z ichiga er-xotin o'rtasidagi, ota-onva farzandlar, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini o'z ichiga oladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar va muloqot shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim

vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratishdir. "Oila munosabat va muloqot psixologiyasi" — bu oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlari, muloqot va hissiy o'zgarishlar psixologiyasini o'rganadigan soha. Oila, har bir insonning rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan ijtimoiy tizim bo'lib, uning psixologik jihatlari hayotda barqarorlik va farovonlikni ta'minlash uchun juda muhimdir. Oilaviy muloqotni yaxshilash uchun bir nechta usullar mavjud bo'lib, oila a'zolarining bir-birlarini tinglashga vaqt ajratishlari va fikrlariga e'tibor berishlari muhim. Bu, oiladagi aloqani yaxshilaydi va bir-biriga tushuncha beradi. O'zaro tushunmovchiliklarning oldini olish uchun ochiq suhbatlar o'tkazish, fikrlarni ifodalash va har bir a'zo o'z hissiyotlarini erkin ifoda etishi kerak. Oiladagi qarorlar, barcha a'zolarni o'z ichiga olgan holda qabul qilinishi kerak. Bu usul o'zaro hurmatni kuchaytiradi va barcha a'zolarning fikrlari muhimligini ta'kidlaydi. Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda hissiy aloqalar juda muhimdir. Emotsional bog'lanishlar insonning xavfsizlik, ishonch, va qo'llab-quvvatlash ehtiyojini qondiradi. Bunday bog'lanishlar ijobjiy o'zaro tushunish, ishonch, hamandardlik va mehr-muhabbatni o'z ichiga oladi. Oila a'zolarining o'zaro muloqoti qanday rivojlanganiga qarab, oila ichidagi munosabatlari va atmosferaning sifatini aniqlash mumkin. Samarali muloqot muammolarni hal qilishda va o'zaro tushunishni rivojlantirishda muhimdir. Oila a'zolari o'rtasidagi ochiq, samimiyl muloqot stressni kamaytiradi va o'zaro hurmatni oshiradi. Har bir oila a'zosining roli o'ziga xos va muhimdir. Oila psixologiyasida, er-xotin, ota-onasi va bolalar o'rtasidagi rollarning aniq belgilanishi zarur.

Oila a'zolarining o'z rollarini tushunishi va bajarishi oiladagi tinchlik va farovonlikni saqlab qolishga yordam beradi. Oila ichida turli nizolar va muammolar paydo bo'lishi tabiiydir. Ammo, muhim bo'lgan narsa – bu muammolarni qanday hal qilishda psixologik yondashuv. Oila a'zolari o'rtasidagi tushunmovchiliklar va nizolarni hal qilishda hamkorlik qilish va empatiya ko'rsatish muhimdir. Oila a'zolarining ruhiy salomatligi o'zaro muloqotda va oiladagi dinamikada aks etadi. Bir-biriga qo'llab-quvvatlash va yordam berish, ayniqsa, qiyin va stressli vaziyatlarda, oila ichidagi ruhiy barqarorlikni saqlab qolishga yordam beradi. Oila munosabatlari va muloqot psixologiyasi o'zining jozibadorligi va murakkabligi bilan ahamiyatli bo'lib, oilaviy farovonlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Agar bu sohada batafsil o'rganishga qiziqsangiz, oilaning turli ijtimoiy va psixologik modellari haqida gaplashishimiz mumkin!

Xulosa:

Farzand tarbiyasi bu faqat qoidalar yoki o'gitlar emas, balki mehr, tushunish, muloqot va yaxshi namuna orqali amalga oshadigan murakkab jarayondir. Barkamol avlodni tarbiyalashda ota-onaning bilimli, sabrli va bag'rikeng bo'lishi juda muhim. Doktor Ali Sallobiy "Agar farzandingiz ruhiy sog'lom hamda buyuk shaxs bo'lishini istasangiz" deb bir qancha tavsiyalarni berib o'tganlar: 1. Agar siz farzandingizni erkalamoqchi bo'lsangiz, boshini silang. Boshini silaganingizda mehr va muhabbatingizni izhor qilgan bo'lasiz. 2. Agar siz farzandingizni tinchlantirmoqchi bo'lsangiz, peshonasiga qo'lingizni qo'ying, uning ko'ksini silash, peshonasidan o'pib qo'yish kerak. 3. Agar siz ota-onasi bo'lib qizingiz, o'g'lingizni qo'llab -quvvatlamoqchi bo'lsangiz, ularga qo'lingizni cho'zing deganlar.[3] Xulosa o'rnidida ta'kidlash joizki, oilaning mustahkamligi va barqarorligi oila a'zolarining o'zaro muomala-munosabati orqali amalga oshiriladi. Barcha nizolar insonlar

bir-birlarini eshitmasliklari sababli kelib chiqyapti. Muammolarning bosh sababi muomala va munosabatda ekan, har birimiz muloqot qilish sirlaridan xabardor bo'lishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoumarov G'. B "Oila psixologiyasi" - o'quv qo'llanma . Toshkent " Sharq " -2010
2. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" O'RQ-909-son 19.02.2024
3. Bahronova M.O' " Komil farzand sifatlari, oilada farzandni barkamol qilib tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari ". 188 Issue 1 Volume 1 | ISSN 3030-377X | 15.01.2025 SCIENCE SHINE INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



МО‘JIZAVIY KAMALAK

RADJABOVA M.B

Buxoro innovatsion ta'lism va tibbiyot universiteti
o'qituvchisi
+998883580802

Annotation. Hayotiy muhim ko'rsatgichlardan biri bo'lgan gomeostaz normal kechishi uchun organizmga tashqi va ichki muhit to'g'risidagi axborotni kelib turishi zarur. Bu axborotlarni markaziy asab tizimiga analizatorlar etkazib beradi. Ko'rav sensor tizimi boshqa analizatorlar orasida muhim o'rinn tutadi. Ko'zning kamalak parda ko'zni turli endo va ekzogen omillardan himoya qiladi. U ko'zdagi orticha ko'z yoshi suyuqliklarni chiqarib, ko'zni turli shishlardan saqlaydi. Kamalak parda nafaqat inson ko'zining turli tuman rangda bo'lislini ta'minlash balki inson organizmida kechayotgan fiziologik jarayonlar haqida ham mahlumot beradi. Kamalak parda va undagi pigmentli hujayralarni faoliyati irsiyatga bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: gomeostaz, analizatorlar, kamalak parda, endogen, ekzogen, tizim, sekretsiya, pigmentli, gen, organizm, ma'lumot, sharsimon.

Абстрактный. Для того, чтобы гомеостаз, который является одним из жизненно важных показателей, был в норме, организму необходимо получать информацию о внешней и внутренней среде. Анализатор передает информацию в центральную нервную систему. Сенсорная система зрения занимается важным местом среди вторых анализаторов.

Радужная оболочка глаз защищает глаз от различных эндо и экзогенных факторов. Он удаляет излишки слезной жидкости из глаз и защищает глаз от различных отеков. Радужка не только открывает человеческому глазу разные миры, но и дает информацию о физиологических процессах, производстве и человеческом организме. Приведены сведения о наследственности активности радужной оболочки и ее пигментных клеток.

Ключевые слова: гомеостаз, анализаторы, радужная оболочка, эндогенная, экзогенная, система, секреция, пигмент, ген, организм, информация, сферичность.

Abstract. In order for homeostasis, which is one of the vital indicators, to be normal, the body needs to receive information about the external and internal environment. Analyzers deliver this information to the central nervous system. The sensory vision system occupies an important place among other analyzers. The iris of the eye protects the eye from various endo- and exogenous factors. It removes excess tear fluid from the eye and protects the eye from various swelling. The iris not only gives the human eye different colors, but also provides information about the physiological processes occurring in the human body. Information is provided on the heredity of the activity of the iris and its pigment cells.

Key words: homeostasis, analyzers, iris, endogenous, exogenous, system, secretion, pigmented, gene, organism, information, spherical.

Kirish. Odam uchun tashqi muhit holati va o'zgarishlari haqida muntazam axborot qabul qilish, bu axborotni qayta ishlash va uning asosida bo'lajak faoliyat rejasi va dasturlarini tuzish zaruriy shartlaridan biridir. Organizmga tashqi va ichki muhit

to'g'risidagi axborotni kelib turishi hayotiy muhim ko'rsatgichlardan biri bo'lgan gomeostazni ta'minlab turish uchun zarur. Bu axborotlarni markaziy asab tizimiga analizatorlar etkazib beradi. Ko'rav sensor tizimi boshqa analizatorlar orasida muhim o'rinni tutadi. Bu tizim miyaga tashqi muhitdan olinadigan axborotlarning 90% ini etkazadi.

Ko'z insonga inom etilgan buyuk tuxfa – ko'rish qobiliyatini hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Ko'zimiz eng noyob va o'ta nozik a'zo bo'lib, uning yordamida o'qiyimiz, yozamiz, kompyuter qarshisida o'tirib ishlaymiz, televizor ko'ramiz, sayohat qilamiz, boshqa mamlakatlar va ularning madaniyatini turli rasm va ko'rsatuqlar orqali taniyimiz

Ko'z sharsimon bo'lib, tashqaridan uning oqsilli, shoxsimon, kamalak pardalari va shilliq pardasi ko'rini turadi. Ko'z olmasini tashqaridan fibroz parda o'ragan bo'lib, uning oldingi tiniq qismi sferik yuzaga ega va shox parda deyiladi. SHox pardanining epiteliy va endoteliysi orqali natriy, kaliy, xlor ionlari yaxshi suriladi va bu ionlarni shox parda ko'z yoshi suyuqligi va ko'z oldingi kamerasining suyuqligiga chiqaradi. SHox parda gidrofillik qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli qon'yugativa xaltasiga tomizilgan dorilar uchun yuksak o'tkazuvchandir. Fibroz pardanining qolgan qismini oqsilli parda tashkil etadi va u himoya vazifasini bajaradi.

Ko'zning o'rtanchi tomirli pardasi ko'zni oziqlantirib turadi va qon tomirlarga boy. U uch qism: tomirli pardanining xususiy qismi, kiprikli tana va kamalak pardadan iborat. Kiprikli tana qon tomirlari bilan birgalikda ko'z suyuqligini hosil qilib turadi. Kamalak parda ko'zni turli endo va ekzogen omillardan himoya qiladi. Kamalak parda ko'zdagi orticha ko'z yoshi suyuqliklarni chiqarib, ko'zni turli shishlardan saqlaydi. Masalan, ko'z yoshi suyuqligining sekretsiyasi oshganda, kamalak parda orqaga harakatlanadi, natijada oldingi kamera biroz qiyshayib, ko'z yoshi suyuq-ligini chiqishi jadalashadi.

Hammamiz hayotimizda ko'plab inson ko'zining rangi qora, jigarrang, ko'k, yashil va hokazo ekanligiga guvohmiz. Kamalak pardada ko'zning rangini aniqlab turuvchi pigmentli hujayralar bo'lib, ular inson ko'zining turli tuman rangda bo'lishini ta'minlaydi. Masalan: kamalak pardada pigment-li hujayralar yupqa bo'lib joylashgan bo'lsa, rang beruvchi modda kam bo'la-di. Natijada ko'zning rangi och ko'k, ko'kimtir, ko'm-ko'k, ba'zi hollarda yashil ham bo'ladi. Jigar rangli ko'zda rang beruvchi modda ko'p, pigmentli hujayralar qalin bo'ladi. Qora rangli ko'zda pigmentli hujayralar zinch joy-lashgan va haddan tashqari ko'p bo'ladi.

Shuningdek, kamalak parda va undagi pigmentli hujayralarni fao-liyati irlsiyatga bog'liq. Organizmdagi har qanday irlsiy belgi gen bilan aniqlanadi. SHu bilan birga har bir gen ko'p belgiga ta'sir etadi. Kamalak pardani rangi va pigmentlarning shakllanishiga 3 ta (A,V,S) gen javobgar hisoblanadi. A gen kamalak pardanining oldingi to'sig'ini tuzilishini aniqlasa, V gen kamalak pardani orqa to'sig'idagi pigmentlarni aniqlaydi. C gen esa stromadagi pigmentlar bilan bevosita bog'langan.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. Yangi tug'ilgan bolalarda ko'zni kamalak pardasi och ko'k rangda bo'lib, bola o'sgan sari kamalak parda muayyan bir rangga kiradi. YOshi ulug' insonlarda shuningdek, surunkali og'ir kasalliklarni boshidan kechirgan bemorlarda esa kamalak parda nursizlana boshlaydi. Kamalak parda rangining nursiz bo'lishi pigment qavatning holdan toyganligi va kamalak pardadagi biriktiruvchi tolali strukturalarning buzilishidan dalolat beradi [6-7].

Kamalak pardadagi siyrak biriktiruvchi tolalar organizmning zaiflashganligi va turli noqulay sharoitlarga chidamlilik pasayganda kuzatiladi. Zich biriktiruvchi tolalar esa ichki organlar faoliyati va inson turmush tarzining yaxshilagini ifodalaydi. Agarda organizm toksin moddalar bilan to'lgan bo'lsa va moddalar almashinuvining buzilish belgilari bo'lsa, u holda kamalak pardada yaltirroq dog'lar yoki nutalar, pushti yoki jigar rangli chiziqlar va hollar paydo bo'ladi. Bosh aylanishi va umumiy charchoqlikda ko'zda quyosh nuriga o'xshab qora radial chiziqlar paydo bo'lishi kuzatiladi [1,3,6,8].

Organizmdan yuqoridagi holatlar bartaraf etilsa, bu nutalar va qora radial chiziqli nurlar yo'qoladi. Sog'lom odamlarda kamalak pardada aks etgan rasmlar inson hayoti davomida (agarda travma va jarrohlik amaliyoti bajarilmagan bo'lsa) o'zgarmaydi. Ayniqsa, ilk yoshlik va o'n ikki yoshgacha bo'lgan davrda organizmdagi zaif organlar tizimining belgi va xususiyat-lari kamalak pardaga o'z aksini topgan. SHu bilan birga rivojlanish davrining anamaliyalarini ham kamalak pardada ko'rish mumkin ekan. Bu esa muhim klinik ahamiyat kasb etadi. Demak, ilk yoshdan boshlab organizmda kuzatiladigan kasalliklarni oldini olish imkoniyati mavjud [2,4,7].

Vengriyalik olim Ignase Peksenining ta'kidlagandek "Ko'z nafaqat ko'ngil oynasi, balki tananing oynasi hamdir". Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'z nafaqat tashqi muhitni ko'ra olishimizdek murakkab vazifa-ni bajaradi, balki tanamizda kechayotgan jarayonlar haqida ham ma'lumot beradi. Bundan ko'rindaniki, ko'zimizning kamalak pardasi organizmdagi turli organlarda boshlanayotgan yoki kechayotgan kasalliklarni ham o'zida aks ettirar ekan [5,7,8].

Demak, kamalak pardada aks etgan rasmlar shakliga qarab turli tuman kasalliklarni aniqlash mumkin. Buni qator olimlar tomonidan olib borilgan kuzatishlar ko'rsatadi. Masalan: Simon kamalak pardada aks etgan rasmning shakliga qarab buyrak kasalliklarni aniqlagan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'z kamalak pardasining rangi kuzatish usuli yordamida aniqlandi. Qon guruhlari laboratoriya sharoitida aniqlandi

Natija va taxllilar. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, ko'zining kamalak pardasi turli rangda (qora rang, jigar rang va ko'k rang) bo'lgan tabiiy fanlar kafedrasining 19-24 yoshli, 27 ta talabasida 2022 -2023 yillarda tajriba olib borildi. Tekshiriluvchilarning barchasida ko'z kamalak pardasining rangi oddiy usulda aniqlandi. Ko'zining kamalak parda rangiga qarab talabalar 3 ta (qora rang, jigar rang va ko'k rang) guruhga bo'lindi. Har bir guruhdan 9 tadan talaba mavjud.

Adabiyotlar sharhidan ma'lumki, ko'zining rangini belgilaydi kamalak parda organizmdagi turli organlarda boshlanayotgan yoki kechayotgan kasalliklarni o'zida aks ettiradi. Shundan kelib chiqib, ishning maqsadi O'rta Osiyoning issiq iqlimli sharoitida kamalak parda rangining organizmdagi fiziologik funksiyalarning holatiga qay darajada belgilashini tajribada o'rganish.

Biz kamalak parda rangini kuzatish usuli yordamida, qon guruhlarini laboratoriya sharoitida aniqladik. Olingan barcha ma'lumotlar matematik yo'l bilan statistik qayta ishlandi va xatoliklari aniqlandi. Olib borilgan tajribalarning natijalariga ko'ra, ko'zining kamalak pardasi jigar rang bo'lgan talabalarning qon guruhlari birinchi guruhga va ko'zining kamalak pardasi ko'k rang bo'lgan talabalarning qon guruhlari esa ikkinchi guruhga mansub ekanligini kuzatdik (1-jadval).

Ko'zdagi kamalak pardaning rangiga qarab qon guruhining taqsimlanishi

Ko'zdagi kamalak pardaning rangi	Qonning guruhlari		
	I-guruh	II-guruh	III-guruh
Ko'k rang	+	-	-
Jigar rang	-	+	-
Qora rang	+	+	+

Ko'zinikamalak pardasi qora rangli bo'lgan talabalarning qon guruhlari aniqlanganda biz juda ham qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ko'zining kamalak pardasi qora rangli bo'lgan talabalarda uchchala qon guruhi (birinchi, ikkinchi va uchunchi guruhi)ning borligi aniqlandi.

Xulosa. Kamalak parda va undagi pigmentli hujayralarni faoliyati irlsiyatga bog'liq. Bizga ma'lumki, organizmdagi har qanday irlsiy belgi gen bilan aniqlanadi. SHu bilan birga har bir gen ko'p belgiga ta'sir etadi. Kamalak pardani rangi va pigmentlarning shakllanishiga 3 ta (A,V,S) gen javobgar hisoblanadi. A gen kamalak pardaning oldingi to'sig'ini tuzilishini aniqlasa, V gen kamalak pardani orqa to'sig'idagi pigmentlarni aniqlaydi. C gen esa stromadagi pigmentlar bilan bevosita bog'langan.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, kamalak parda va undagi pigmentli hujayralarni faoliyati ta'minlaydigan irlsiy belgi genga bog'-liq. V va S genlar kamalak pardadagi pigmentlar faoliyatini bevosita boshqaradi. Har bir gen ko'p belgiga ta'sir etadi. Kamalak pardani rangi, pigmentlarning shakllanishiga va u bilan bog'liq bo'lgan fiziologik holatlarga V va S gen javobgar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Belyshkin D.V. O nekotoruyx vozmojnostyx iridotterapii // Materialy I vsesoyuznoy konferensii
- 2.Boykova N. N. Oftalmologiya. M.: RIOR, 2007. 320 s.
- 3.Velxover E.S. Vvedenie v iridologiyu. - M.: Meditsina, 1991.
- 4.Gonskiy I.YA., Neyko V.E., Prodeus A.M. Iridogeneticheskiy podxod dlya ratsionalnoy immunomodulyasii // Ukr. gomeopaticheskiy ejegodnik. 2005. T.8. S.143.
- 5.Dorofeeva Anna Alekseevna, Negasheva Marina Anatolevna. Sovremennoe sostoyanie issledovaniy radujnoy obolochki glaza v antropologii // Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya. Antropologiya. - 2010.- № 1. - S. 4-21.
- 6.Komilova B.O. Shodiyeva M. Sh. Phyziological and Psychological Characteristics of the students depending on the color of eye irisMedicine and medical Sciences 2020, 10 (2). 121-123
- 7.Komilova B.O., Safarova Z.T., Jabborov Fiziologicheskaya i psixologicheskaya xarakteristika s



JAHON BOZORIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI

GULSOVA Dilnoza Shaxobiddinovna

Gulovadilnoza420@gmail.com

Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola axborot texnologiyalarining jahon bozoridagi roli va ta'sirini o'rganadi. Maqolada AT ning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatishi, yangi imkoniyatlar yaratishi va global savdoda o'zgarishlarga sabab bo'lishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola axborot texnologiyalarining salbiy oqibatlari, xavfsizlik, raqamli bo'linish va monopoliyalar masalalarini ham ko'rib chiqadi. Axborot texnologiyalarining jahon bozoridagi o'rni va uning kelajakdagi istiqbollari haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, jahon bozori, global iqtisodiyot, e-kommerts, innovatsiyalar, raqamli transformatsiya, kiberxavfsizlik, raqamli bo'linish, iqtisodiy samaradorlik, monopoliyalar, texnologik rivojlanish.

Kirish. Axborot texnologiyalari (AT) so'zi bugungi kunda har bir sohada, jumladan iqtisodiyot, tibbiyat, ta'lif, sanoat, kommunikatsiya va boshqa ko'plab sohalarda muhim rol o'ynaydi. Axborot texnologiyalari jamiyatning barcha jabhalariga kirib borgan bo'lib, ularning ta'siri dunyo bo'y lab tez sur'atlar bilan tarqalmoqda. Jahon bozorida axborot texnologiyalarining roli ayniqsa katta, chunki bu texnologiyalar global iqtisodiyotning yangi poydevorini shakllantiradi, davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini o'zgartiradi, yangi ish o'rinalarini yaratadi va jamiyatlarning turmush tarzini tubdan o'zgartiradi. Jahon bozorida axborot texnologiyalarining rivojlanishi ko'plab ijobiy natijalarga olib keldi. Ular global iqtisodiyotni kuchaytirish, innovatsion sohalarni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va resurslarni samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratdi. ATning bozorga ta'siri quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali ko'rsatilishi mumkin: Internet va mobil texnologiyalarining rivojlanishi global aloqalarni mustahkamladi. Endi kompaniyalar va davlatlar o'rtasidagi biznes va savdo munosabatlari cheklavlarsiz amalga oshiriladi. E-kommertsiyani rivojlantirish orqali kichik va o'rta bizneslar ham global bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, Amazon, Alibaba, eBay kabi kompaniyalar jahon bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda va xaridorlar mahsulotlarni dunyo bo'y lab sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

-Yangi texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, big data, blokcheyn texnologiyalari sanoatni tubdan o'zgartirmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali mahsulotlar sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari yaratildi. Misol uchun, IoT (Internet of Things) texnologiyasi orqali ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilish mumkin bo'lib, bu o'z navbatida sanoatning samaradorligini oshiradi. Axborot texnologiyalari jahon iqtisodiyoti va bozorlarining yangi shakllanishiga olib keldi. "Raqqobatbardosh" degan tushuncha yangi mazmun kasb etdi, chunki endi kompaniyalar faqat narx va sifatga qarab emas, balki texnologiyalarni qanday joriy etishlariga ko'ra ham raqobat qilishadi. Innovatsiyalar va texnologiyalarga asoslangan yangi sanoatlar shakllanib, mavjud bozorlar kengaymoqda. Yangi startaplar va texnologik kompaniyalar global bozorga chiqishga muvaffaqiyatli

kirishmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi kadrlar bozorini ham o'zgartirdi. Talab yuqori bo'lgan mutaxassislar – dasturchilar, tizim administratorlari, sun'iy intellekt mutaxassislari va ma'lumotlar tahlilchilari dunyo bo'ylab talablarga javob berishmoqda. Natijada, yangi kasblar paydo bo'lmoqda va ta'lim tizimi ham AT sohasiga yo'naltirilgan ko'nikmalarни o'rgatishga majbur bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalarni o'rgatish, masofaviy ta'lim va onlayn kurslar orqali global ta'lim tizimi ham yangi bosqichga ko'tarildi.

Axborot texnologiyalarining jahon bozoridagi salbiy oqibatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, quyidagilarni aytish mumkin: Axborot texnologiyalari (AT) jahon bozorini tubdan o'zgartirgan va iqtisodiy tizimni yangi bosqichga olib chiqqan, ammalarning salbiy ta'sirlari ham ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolarni yuzaga keltirdi. AT ning jahon bozorida kengayishi bir qator ijobiy natijalarni keltirib chiqarayotgani bilan, ayni paytda ba'zi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu muammolarni tahlil qilish orqali texnologiyalarni yanada samarali va xavfsiz tarzda joriy etishning imkoniyatlari o'rganiladi. Quyida AT ning jahon bozoridagi salbiy oqibatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Axborot texnologiyalari, ayniqsa internet va raqamli tarmoqlar keng tarqalgan sari, xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari yanada muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Kiberhujumlar va onlayn firibgarlik (fraud) holatlari tobora kuchaymoqda. Ma'lumotlar bazalarining o'g'irlanishi, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini noqonuniy yig'ish va ularni sotish kabi holatlar global miqyosda xavf tug'dirmoqda. Kiberxavfsizlik masalalari ko'plab mamlakatlar va kompaniyalar uchun eng dolzarb masalalarga aylanmoqda, chunki tarmoq orqali amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalar o'zgarib, yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli bo'linish, ya'ni texnologiyalarga teng kira olish imkoniyatining mavjud emasligi, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirmoqda. Yirik rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rta sidagi raqamli tafovut, yangi iqtisodiy tengsizlikka olib kelmoqda. Kichik va o'rta bizneslar ba'zan global bozorga kirishda texnologik infrastrukturaga ega bo'lmasligi sababli muammolarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarda internetga keng kirish imkoniyati yo'qligi yoki texnologiyalarga bo'lgan imkoniyatlar cheklanganligi sababli raqamli inqiroz yuzaga kelishi mumkin. Ta'lim, tibbiyot, va xizmatlar sohasida raqamli bo'linish jamiyatning barcha qatlamlariga zarar keltirmoqda. Raqamli infrastrukturaga teng kirish imkoniyatlarining yo'qligi o'qish imkoniyatlarini kamaytiradi va iqtisodiy o'sishni cheklaydi. Axborot texnologiyalari va avtomatlashtirish jarayonlari, bir tomonidan, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali qilishda yordam bersa, boshqa tomonidan, ayrim sohalarda ishchi kuchining qisqarishiga olib kelmoqda. Avtomatlashtirish va robototexnika joriy etilishi, ayniqsa, sanoat va ishlab chiqarish sohalarida, ko'plab an'anaviy ish o'rinalarini yo'q qilmoqda. Bu esa ish o'rinalarining qisqarishi va natijada, kadrlar bozorida noaniqlik va ishga joylashish qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Masalan, avtomobil sanoatida robotlar va sun'iy intellekt tizimlari tomonidan boshqariladigan montaj liniyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirsa ham, bir vaqtning o'zida bu texnologiyalar ko'plab ishchilarning ish o'rinalarini yo'qotishiga sabab bo'lmoqda. Ishsizlikning o'sishi, iqtisodiy inqiroz va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Axborot texnologiyalari orqali rivojlangan yirik kompaniyalar o'z monopoliyasini kuchaytirishi mumkin. Katta texnologik kompaniyalar, masalan, Google, Amazon, Facebook va Apple kabi gigantlar o'z bozorlari va xizmatlarini butun dunyo bo'ylab tarqatmoqda. Bu esa kichik kompaniyalar uchun raqobatlashish imkoniyatlarini cheklaydi. Ayniqsa, kichik va o'rta bizneslar texnologik infratuzilma va katta sarmoya talab qilgan sohalarda raqobat qilishda qiynalmoqda. Yirik kompaniyalar bozorni nazorat qilish orqali o'z foydasini oshirishga intilishadi, bu esa bozorning noteng taqsimlanishiga olib keladi. Natijada, monopoliyalar bozorning yirik qismini egallab olishga muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin, bu esa iqtisodiy erkinlikni susaytiradi. Axborot texnologiyalarining global miqyosda tarqalishi, ba'zida madaniy tengsizlikni va ijtimoiy izolyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Global tarmoqlar va raqamli platformalar orqali jamiyatlar bir-biri bilan bog'lanib, yangi madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Biroq, bu o'zgarishlar ba'zi madaniyatlarning "g'oyib bo'lishiga" yoki homogenizatsiyasiga olib kelishi mumkin. Masalan, raqamli texnologiyalar ko'plab mamlakatlarga o'z madaniy an'analari va qadriyatlarini global miqyosda yoyish imkoniyatini beradi, ammo bu ba'zan kichik madaniyatlar va urf-odatlarni yo'qotish xavfini tug'diradi. Ijtimoiy izolyatsiya ham bir muammo bo'lishi mumkin, chunki ba'zi odamlar texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash imkoniga ega bo'lmasligi yoki ular bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Xulosa. Axborot texnologiyalarining jahon bozorida kengayishi bir qator salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Xavfsizlik muammolari, raqamli bo'linish, ish o'rinalining qisqarishi, monopoliyalarning kuchayishi va madaniy ta'sirlar jahon iqtisodiyotini yangi xatarlar bilan yuzma-yuz qoldirmoqda. Shu bois, AT sohasidagi rivojlanishni boshqarishda davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan samarali choralar ko'riliши zarur. Yangi texnologiyalarni rivojlantirishda xavfsizlikni ta'minlash, raqamli tenglikni yaratish va kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha global tashabbuslar muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulkarimov, A. Axborot texnologiyalari va iqtisodiy rivojlanish.- 2020.Toshkent: Universitet nashri.- 237 b.
2. Zokirov, A. Jahon iqtisodiyotida axborot texnologiyalarining roli. 2018.Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.-320 b
3. Tashpolatov, T. Digital inqiroz va raqamli iqtisodiyot: Salbiy ta'sirlar va yangi imkoniyatlar. 2021 Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 198-b
4. Ibragimov, R.. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy innovatsiyalar. 2020.Toshkent: Akademiya nashriyoti. 220-b
5. Shuvalov, V. A. Tehnologii i ekonomicheskie riski: problemy razvitiya. 2018. Moskva: Nauka. 380-b



3-7 YOSHLI BOLALARDA STOMATOLOGIK PROFILAKTIKA

MASHHURA Sulaymonovna Safarova
Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro
safarova.mashhura@bsmi.uz

ANNOTATSIYA. Bolani ko'krak suti bilan parvarish qilish inson sog'ligini shakkantirishning majburiy sharti bo'lib hisoblanadi. U keyinchalik jamiyatning intellektual salohiyati, jismoniy ishchanligi, qayta ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy funksiyalarning tiklanishiga ta'sir qiladi. Respublika ixtisoslashgan ilmiy-amaliy pediatriya tibbiy markazi professori Dilorom Axmedova fikriga ko'ra (2016), ikki yoshgacha emiziladigan bolalar kamroq kasallanadi, ularning o'limi ko'rsatkichlari yanada qisqa vaqt ichida ona sutini olgan yoki sun'iy parvarish qilingan go'daklarga qaraganda quyi darajada. O'tgan yilda mamlakatimizda ko'krak bilan oziqlanadigan bolalarning o'rtacha darajasi 54,4% ni tashkil qilgan, Buxoro viloyati va Qoraqalpog'istonda eng yuqori ko'rsatkichlar belgilangan. Tug'ruqxonalardan chiqarish vaqtida oziqlanishning bunday turi yuqori ulushni tashkil qiladi, biroq oxirgi oylarda pasayish kuzatilmoqda. Ko'krak orqali parvarishni ilgari surish masalalari bo'yicha Sog'liq saqlash vazirligi shifokorlarning kasbiy rivojlanishi uchun YUNISEF bilan faol hamkorlik qilmoqda.

KALIT SO'ZLAR: Profilaktika, sut tishlari, bolalar, stomatologik kasalliklar.

KIRISH: Tabiiy oziqlantirishning dolzarbliji va uning muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlari juda ko'p. Biroq mualliflarning ilmiy ishlarida ko'krak orqali parvarishlashdan erta voz kechishning ayrim sabablari aks etgan, bunda xavf omillarining ahamiyati etarli o'rganilmagan. Bayon etilganlardan kelib chiqib, bolalarni sun'iy parvarishlashga erta o'tkazishga yordam beradigan xavf sabablari va omillari ahamiyatini o'rganish o'ta muhim hisoblanadi. SHunga ko'ra ko'krak orqali parvarishlashni qo'llashga yangi yondashuvlarning ilmiy asoslanishi alohida ahamiyatga ega, ularning orasida erta yoshda bolalarni sun'iy parvarishlashga o'tkazish omillarining bartaraf etishga qaratilgan dasturlar muhim o'rinni egallaydi.

MAQSAD: Oziqlanish turiga ko'ra, maktabgacha bo'lgan bolalarda stomatologik kasalliklar profilaktikasini takomillashtirish

MATERIALLAR VA METODLAR: Bolalarda stomatologik kasalliklar rivojlanishi uchun mavjud xavf omillarini o'rganish maqsadida oziqlantirish turiga bog'liq ravishda maktab yoshigacha bo'lgan 1066 nafar bolada Buxoro viloyati va Buxoro shahrining davlat maktabgacha ta'lif muassasalarida tashkil qilingan stomatologik ko'riklar o'tkazildi.

YOsh, jins va turar joyiga ko'ra birinchi ko'rik materiallari tahlil qilinganda 3-7 yoshdagagi o'g'il bolalar 552 nafar (51,8%), hamda tumanlardagi bolalar 638 nafar (72,3%) bolalar ustunlik qildi. Olingan natijalar mazkur bolalar kontingentining og'iz bo'shlig'i gigienik holatining yomonligi bilan bolalar ota-onalarining stomatologik kasalliklar haqidagi ma'lumotlardan kam xabardorligi orasida bog'liqlik borligini ham ko'rsatdi. Barcha ko'rikdan o'tgan (n=1066) maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyalanuvchilari orasidan tadqiqot uchun 170 nafar bola tanlab olindi, ularidan 140 nafarida turli xil stomatologik kasalliklar aniqlandi va 30 nafari sog'lom normal stomatologik holatga ega bolalarni tashkil etdi.

Biokimyoviy holat ko'rsatkichlariga ko'ra bolalar 3 ta guruhgaga bo'lindi:

1-nazorat guruhi – 30 nafar sog'lom bola;

2-asosiy guruhi – 70 nafar sun'iy va aralash oziqlantirilgan stomatologik kasalliklari mavjud bo'lgan bolalar;

3-taqqoslash guruhi – 70 nafar tabiiy oziqlantirilgan stomatologik kasalliklari mavjud bo'lgan bolalarni tashkil etdi.

1-jadval

O'r ganilgan guruhlarning stomatologik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	1 – nazorat guruhi (sog'lom bolalar) n=30	2 – guruhi (sun'iy va aralash oziqlantirilgan stomatologik kasalliklari mavjud bolalar) n=70	3-guruh (tabiiy oziqlangan stomatologik kasalliklari mavjud bolalar) n=70
Og'iz bo'shlig'inining gigienik indeksi (GI)	1,7±0,07*	2,6±0,07*	2,1±0,06*
Karies-plomba olib tashlangan tish (KPOT)	1,2±0,37*	4,5±0,37*	4,2±0,30*
Tish emali rezistentligi indeksi (TER)	34,7±0,37*	45,7±1,77*	47,1±2,39*
Karies intensivligi darajasi(KID)	0,46±0,37*	0,9±0,1*	0,6±0,06*
So'rovnama bo'yicha ballar	7,22±0,09*	28,9±0,92*	13,7±0,96*

Eslatma: * - nazorat guruhi ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (* - R<0,05, ** - R<0,01, *** - R<0,001)

3-7 yoshli bolalarning tishlari yuzasida karioz zararlanish lokalizatsiyasini tahlil qilishda aniqlandi, ko'proq (41,2%) vestibulyar va tanglay yuzalari, kesuvchi tishlarning, asosan kesuv yuzalarida, so'ng okklyuzion - 33,4%, medial – 15,7%, distal - 9,7% yuzalari karies bilan zararlanganligi aniqlandi. Sut tishlarda kesuv tishlar 39,1%, vestibulyar 27,8%, vestibulyar tanglay 18,9%, medial 14,2% va distal 10,0% chaynov yuzalarida katta darajadagi karioz zararlanishlar turli foizlarda kuzatildi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning og'iz bo'shlig'i past gigienik ko'nikmalari, hamda zararli odatlar bilan birgalikda tish kariesi va uning asoratlari va og'iz bo'shlig'i kasalliklarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Etarli bo'limgan og'iz bo'shlig'i

gigienasi emalga zaruriy mineral va ozuqaviy moddalarining kelib tushishiga halaqit beradi, natijada keyinchalik tish kariesi rivojlanishi va emalning kosmetik nuqsoniga olib keladigan jarayonga sabab bo'ladi.

Ma'lum bo'lishicha, kariesning yuzaga kelishi uchun birinchi navbatda eng ahamiyatli omil bo'lib og'iz bo'shlig'i gigienik holatining yomonlashishi hisoblanadi.

Aniqlangan ma'lumotlar va tuzilgan profilaktik tadbirlar dasturidan kelib chiqib, sun'iy oziqlanishdagi bolalarda karies va tish-jag' anomaliyalari rivojlanishining asosiy sabablariga alohida e'tibor berdik. Bunda gigienik indeks holati va bolalarda zararli odatlarning borligini alohida ta'kidladik. Turli og'iz bo'shlig'i gigienasi darajasiga ega bolalar uchun, og'iz bo'shlig'i gigienasi holatini hisobga olgan holda, aniqlangan ko'rsatkichlar bo'yicha 1-2 yoki 5 ta dars o'tkazildi. Yaxshi gigiena darajasiga ega bolalar uchun 1-2 ta dars, yomon gigiena darajasiga ega bolalar uchun esa 3-5 ta darsni o'tish etarli bo'ldi. Og'iz bo'shlig'i gigienasi darslarini o'tib bo'lgach, imkon qadar ota-onalar bilan mazkur ko'rsatkichning ancha yaxshilanganligini ko'rsatgan gigienik indeksi takroran aniqladik.

Ta'kidlash lozimki, gigiena darslari natijasida qoniqarsiz va yomon darajaga ega bolalar miqdori anchaga kamaydi, ya'ni boshlang'ich darajada 66,6% da 22,2 gacha kamaydi, bu 44,4 martaga (tekshirilayotgan bolalarning deyarli yarmi) kamaydi.

XULOSA: SHunday qilib, taklif etilgan dasturdan amaliy bolalar stomatologlari va umumiyl amaliyot poliklinika shifokorlari faoliyatida foydalanish bolalik davrida turli xil stomatologik kasalliklarning pasayishiga imkon beradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati

1. SAFAROVA, MS. "INTEGRATIVNAYA STOMATOLOGIYA I CHELYUSTNOLITSEVAYA XIRURGIYA." INTEGRATIVNAYA STOMATOLOGIYA I CHELYUSTNOLITSEVAYA XIRURGIYA Uchrediteli: OOO "Scientific Innovations" 1.1 (2022): 91-94.
2. Safarova, M. S. "Methods of Complex Treatment of Neuritis of The Facial Nerve." Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA). 2023.
3. Sulaymonovna, Safarova Mashhura. "Prevention of Dental Diseases." Central Asian Journal of Medical and Natural Science 4.2 (2023): 51-55.
4. Safarova, Mashxura Sulaymonovna. "Vliyanie Grudnogo Vskarmlivaniya Na CHElyustno-Litsevuyu Oblast." Research Journal of Trauma and Disability Studies 3.3 (2024): 391-395.
5. SAFAROVA, MS. "MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALAR OG'IZ BO'SHЛИG'I HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH." MOLODOY SPETSIALIST Uchrediteli: IP" Isakova UM" 3 (2022): 3-6.
6. Safarova, M. S. "Improvement of Methods of Complex Treatment of Neuritis of the Facial Nerve." Journal of Intellectual Property and Human Rights 2.3 (2023): 48-52.
7. Safarova, Mashxura Sulaymonovna, and Feruza Raxmatillaevna Kamalova. "Sovershenstvovanie profilaktiki osnovnykh stomatologicheskix zabolеваний u detey naxodivshixsy na iskusstvennom vskarmlivanii." Jurnal stomatologii i kraniofatsialnyx issledovaniy 3.3 (2022).



AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA AXBOROT ALMASHINUVI JARAYONINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

*RAMAZONOV Jahongir Djalolovich
Buxoro davlat pedagogika instituti.
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat va axborot almashinuvi jarayonining psixologik determinantlari, axborot istemoli madaniyati shakllanishida tasirlarning psixologik xususiyatlari va yoshlardan talab etiladigan axboriy psixologik shartlar haqida fikir mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborot globallashuvi, axborot madaniyati, axborot tahididlari, ma'naviyat, semiotik madaniyat, kontseptual va texnologik madaniyat, terminologik madaniyat, muloqot madaniyati, axborot dunyoqarashi, axborot savodxonligi, axborot, madaniyat.

Аннотация. В данной статье приводятся рассуждения о психологических детерминантах процесса информированного общества и обмена информацией, психологических особенностях влияний на формирование культуры потребления информации и информационно-психологических условиях, требуемых от молодежи.

Ключевые слова: информационная глобализация, Информационная культура, информационные угрозы, духовность, семиотическая культура, концептуальная и технологическая культура, терминологическая культура, культура общения, информационное мировоззрение, информационная грамотность, информация, культура.

Annotation. This article provides feedback on the psychological determinants of the process of informational society and information exchange, the psychological characteristics of influences in the formation of the culture of information extremes and the informational psychological conditions required of young people.

Keywords: information globalization, information culture, information threats, spirituality, semiotic culture, conceptual and technological culture, terminological culture, communication culture, information worldview, information literacy, information, culture.

XXI asr –axborot asri, deya e'tirof etildi. Bunga asosiy sabab–ushbu asrga kelib, misli ko'rilmagan ulkan hajmdagi axborotni katta tezlikda uzatish texnologiyalari paydo bo'ldi. Boshqacha aytganda, axborot texnologiyalari sohasida chinakam inqilob sodir bo'ldi. 1986 yilda Internetning dunyoda barqaror o'ringa ega bo'lishi[1] axborot va axborotlashtirish borasidagi, qolaversa, butun insoniyat hayotida olamshumul voqeaga aylandi.

Garchi amerikalik olim R.Xartli «axborot» tushunchasini texnik aloqa kanallari bo'ylab tarqatiluvchi ma'lumotlarning miqdoriy mezonini belgilash uchun 1928-yilda birinchi marta ilmiy muomalaga kiritgan bo'lsada, bu atamaga jiddiy e'tibor 1948 yildangina qaratila boshlagan edi. XX asrning 60-yillaridagi ko'p tadqiqotlar axborotni qidirish muammolari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni shu davrda axborotni qidirish tizimi va usullari yaratildi[2]. Kibernetikaning rivojlanishi va axborot nazariyasi fanining maydonga kelishi bu sohaning keng miqyosda taraqqiy etishiga olib keldi.

Tadqiqotchi G.Gaffarovning ta'kidlashicha, «oxirgi yillarda adabiyotlarda ob'ektiv borliqda mavjud axborot modeli g'oyasi muhokama qilinmoqda. Xususan, jonsiz tabiatdagi rivojlanish masalasiga yondashuv undagi o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlariga nisbatan qanday qo'llash mumkinligiga bog'liq. Ushbu qarashlarga muvofiq, o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlarida alohida axborot tuzilmalari – kodlar mavjud»[3]. Bu kodlar «tizim uchun qimmatli axborotni qayd qiladi, uning tarkibiy qismi bo'lib maydonga chiqadi hamda muhit bilan o'zaro aloqadorligi va uning yaxlit holati sifatida qayta tiklanishning yo'llarini aniqlaydi»[4].

Zamonaviy ijtimoiy fanlar vakillari bu kabi axborot tuzilmalari va uning vazifalarini ijtimoiy tizimlarga muvofiq ravishda tushuntiradilar. Bu-biologik organizmlarda genetik apparat orqali, ijtimoiy organizmlarda esa madaniyat orqali sodir bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, «axborot» tushunchasi uzoq tarixi va ko'p qirrali ma'nosiga ega. Ijtimoiy hayotda axborot – insonlar, faktlar, hodisalar va boshqa jarayonlar haqidagi ma'lumotni anglatadi. «Axborot» tushunchasiga oid tahlillardan kelib chiqib, axborot jamiyat uchun faqat muloqot predmeti emas, balki insonlar orasida muloqotda axborot almashinuviga ta'sir ko'rsatadigan omil, deya xulosa qilish mumkin.

Endi tadqiqotimiz ob'ektida bo'lgan «axborot almashinivi» tushunchasi, uning «muloqot» va «kommunikatsiya» kabi kategoriyalar bilan aloqadorligini tahlil qilishga o'tamiz.

Darhaqiqat, axborot bu – xabar, ma'lumot. Ammo jamiyatda axborot almashinuvining butun mexanizmini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazaridan tushunish uchun «axborot»ning bunday talqini etarli emas. Shu bois, axborotning barcha umumiyligi xususiyatari, axborot almashinivi jarayonining hodisa sifatidagi mohiyatini tadqiq etish maqsadida har qanday jarayon uchun tipik bo'lgan jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

«Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining qonuning 3-moddasida axborot bu – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar deya ta'rif berilgan[5].

Bundan tashqari, axborotning mohiyati – xabar belgilarida emas, balki axborot almashinivi ishtirokchilarining tashkiliy tayyorgarligi darajasiga ham bog'liq. Axborot almashinivi esa ishtirokchilarning tashkiliy jihatdan hilma-hiligi, tuzilmalarning faoliyat turlari o'rtasidagi farqlardan kelib chiqadi. Albatta, bu hol axborot almashinivi jarayoni ishtirokchilarini maksimal darajada uyg'unlashgan tizimlar sifatida qarash asosida yuzaga keladi. Matematika, kibernetika, falsafa sohasida o'tkazilgan tadqiqotlar axborot sig'imi bilan tizimning tartibga solinganlik holati o'rtasida muayyan bog'liqlik shakllanishini isbotlagan[6].

Axborot almashinuviga tizim sifatida yondashish ilmiy adabiyotlarda muayyan darajada tadqiq etilgan. Bunga: V.Afanasev[7], V.Tyuxtin[8], A.Ursula[9] va boshqalarning ilmiy ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Mazkur ishlarda muammolar, asosan, tizimli (tuzilmaviy-funksional) tahlil usulida tahlil etilgan. Tizimli yondashuvning bunday usuli falsafa, psixologiya, yurisprudensiya, matbuot nazariyasi, iqtisodiyot va pedagogika bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlarga xosdir. Binobarin, axborot almashinuv hodisasini tadqiq etishda sotsiolog olimlar tizimli yondashuv usuliga mustahkam tayanganlari bejiz

emas.

Axborotlashgan jamiyat to'g'risidagi zamonaviy nazariyalarda axborot va axborot almashinuvi jarayoni muhimligi ta'kidlanib, bu ijtimoiy o'zaro bog'liqlikning bir bo'lagi sifatida talqin qilinadi[10]. Axborot almashinuvi va uning boshqa fundamental jarayonlar bilan aloqalari modeli tizim yasovchi elementlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Shunday qilib, axborot almashinuvda ishtirok etuvchi tizimlardan har birining tartibi o'zgarishi o'zaro aloqadorlik asosida, ya'ni ularning birgalikda tashkil etilishi bilan o'ziga xos noyob jarayon sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro ta'sir jarayonida tizimlarning har biri boshqa tizimlarning ichki mutanosibligi va intensivligiga bevosita bog'liq ravishda o'zgaradi. Natijada, bir axborot almashinuvi o'rniga materiya harakatlanishining (birinchi navbatda ijtimoiy) oliv shakllariga xos 4 ta fundamental komponent: 1) axborot almashish; 2) tashkil etish; 3) aks ettirish; 4) o'zaro ta'sir bilan ish tutishga to'g'ri keladi.

Bu erda o'zaro ta'sir, shubhasiz, asosiy va yakuniy omil-sabab sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan o'zaro ta'sirning qolgan komponentlarini funksiyalar bo'yicha ajratib chiqsak, aks ettirish – o'zaro ta'sirning xususiyati, tashkil etish–o'zaro ta'sirning mazmuni yoki birgalikdagi natijasi, axborot almashinuv – o'zaro ta'sirning shakli yoki mexanizmi tarzida namoyon bo'ladi. Muloqotni sotsiologik tushunish nuqtai nazaridan xulosa qilsak, muloqot ma'lum jihatdan axborot almashinuvining o'ziga xos turi ekan: u birinchidan, har qanday holatda ijtimoiy o'zaro ta'sirning axborot mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy aks ettirish xususiyati tufayli harakat qiladi va uchinchidan, axborot almashinuvi natijasida muloqot ishtirokchilarining muayyan darajada birgalikda tashkillanishlariga olib keladi, deb ta'kidlash mumkin. Bu fikrga axborot hamisha ham faqat xabar emas, balki o'zaro ta'sir etuvchi tizimlarning tashkil etilgan (tartibga solingan)lik nisbati ekanligini qo'shsak, jamiyatdagi har qanday axborot almashinuvida jamiyat hayotining o'rganilayotgan qismiga nisbatan u yoki bu ijtimoiy munosabat mavjudligini yoxud u yoki bu ijtimoiy munosabatlar o'zgargani (takomillashgani)ni ko'rish mumkin.

Axborot almashinuvi jarayonining xususiyatlari haqida belorusiyalik mutaxassislar: G.Bulatskiy va Y.Prilyuklarning bu haqda bergan tasniflari o'zining qamrovi va teranligi bilan alohida ajralib turadi[11]. Ular quyidagilardan iborat:

1. Axborot almashinuvi qanchalik muhim va o'zicha mustaqil hodisa bo'lib tuyulmasin, bari bir u hamisha o'zaro ta'sir ko'rsatish mexanizmi bo'lib qolaveradi. Buni ijtimoiy o'zaro ta'sirga nisbatan oladigan bo'lsak, har qanday axborot almashinuvi kishilar, jamoalar yoki ijtimoiy guruhlarni ma'naviy va intellektual takomillashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi, xolos.

2. Axborot almashinuvi mexanizmi amal qilishining eng muhim natijasi sifatida shuni keltirish mumkinki, muloqotda ishtirok etuvchilarining tuzilmaviy hamda kontent (mazmuniy) parametrlari bir-biriga mos ravishda o'zgaradi, ular o'zaro muvofiqlashib turadi.

3. Axborot almashinuvining regulyativ (tartibga solish) funksiyasi mavjudligini uning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Buning natijasida muloqotga kirishuvchilar o'rtasida ma'rifiy funksiya ishga tushsa, ong, bilim va dunyoqarashni maqsadga muvofiq tarzda shakllantirib borish jarayoni tartibga solinadi.

4. Axborot almashinuvining o'zaro munosabatni dolzarblashtirish xususiyati ham



mavjud. Ma'lumki, munosabat o'zaro ta'sirning sharti, alomatidir. Muloqot vaqtida ishtirokchilar almashinayotgan axborot, ularning o'ziga xos ifodalanishi oqibatida individlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida munosabatlar o'zgarishi, ya'ni rivojlanishi yoki susayishi mumkin.

5. Axborot almashinuvida indikativlik xususiyati ham bor. Bu degani o'zaro ta'sirning, hech bo'limganda, bir komponenti haqida ma'lumotlarga ega bo'linsa, boshqalari haqida ham ishonch bilan fikr yuritish, ularni qayerda va qanday qilib izlash kerakligini hisoblab chiqishga imkon beradi. Jumladan, ijtimoiy tashkillashtirish va boshqarishning har qanday hodisasining shakli qanchalik noodatiy bo'lishiga qaramay, axborot almashinuvi haqida fikr yuritishga asos bo'ladi.

Bizningcha, «axborot almashinuvi» tushunchasining tizimli tahlili bu o'zaro ta'sir, ta'sir natijasi, ob'ekt va sub'ekt holatining o'zgarishi, qayta aloqa, axborotning qamrov darajasi, shakl va etkazish hususiyatlaridan iborat tizim bo'lib, jamiyat hayoti va individ faoliyatidagi rivojlantirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Agar axborot almashinuvida muloqot, kommunikatsiya asosiy vositalar bo'lib xizmat qilsa, uning ijtimoiy hodisa sifatida tartiblanishi o'ziga xos mezonlar negizida sodir bo'ladi. Bu esa «axborot madaniyati» degan umumiyl tushunchada o'z ifodasini topadi.

Jamiyatning axborot madaniyati uning a'zolari tomonidan axborot resurslaridan ma'lumotlar almashish, shaxsiy hayot faoliyati va davlatning taraqqiy etish manfaatlari uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Shaxs axborot oqimida erkin harakatlanishi uchun umumiyl madaniyatining tarkibiy qismi sifatida axborot madaniyatiga ega bo'lishi shart. Axborot madaniyati shaxsning ijtimoiy tabiatiga xos ehtiyojlar bilan bog'liqdir. Axborot madaniyatining darajasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish va undan kundalik faoliyat hamda turli xil ehtiyojlarni qondirishda foydalana olish malakasining shakllanganligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, «axborot madaniyati» tushunchasining mohiyati turli axborotni nafaqat tahlil etish, balki uni boshqarish usullarini egallaganlik nuqtai nazaridan ham aniqlanadi.

Axborot olish, uzatish hamda ko'nikmalarini shakllantirish – kompleks hal qilinishi lozim bo'lgan ko'rrali muammo. Axborot madaniyati axborotga nisbatan munosabat, dunyoqarashni shakllantirish metodologiyasini yaratishi, aholiga axborotlashgan jamiyatning falsafasini tushuntirishi, axborot oqimi orasidan zarur axborotni tanlab olish ko'nikmalarini shakllantirishi jihatidan muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- Чернов А.А. Становление глобального информационного общества: проблемы и перспективы.–М.: Дашков и К,2003.–С.13.
- Хартли Р. Передача информации // Теория информации и её приложения. – М.: Гос. изд. физ.-мат. лит., 1959.
- Гаффарова Г.Ф. Ахборот ва ахборотлаштириш жараёнларининг фалсафий-методологик муаммолари:фалс. фан. номз. ... дисс. – Тошкент,2008.– Б.25.
- Степин В.С. Саморазвивающиеся системы и постнеклассическая патсиональность // Вопросы философии. – Москва,2003.– №8.– С.12.
- «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни // 2002 йил 12 декабрь, 439-II-сон



MIRZO ULUG'BEKNING "TO'RT ULUS TARIXI" ASARI YURTIMIZ TARIXINI O'RGANISHDA MUHIM MANBA

RAJABOV San'atjon Sunatovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasи katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bekning mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib aniq va gumanitar fanlar rivojiga qo'shgan hissasi, xususan, Tarixi arba' ulus" (To'rt ulus tarixi) asarini yurtimiz tarixini o'rghanishdagi o'rni, shuningdek, akademik Bo'ribboy Ahmedovning ilmiy tadqiqotlari natijasida ushbu asarning o'zbek tiliga tarjima qilinganligi, yurtimizga mo'g'ullar bosqini oqibatlari, jumladan, Buxoro tarixiga oid ma'lumotlar tahlil etiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается вклад Мирзо Улугбека в развитие естественных и гуманитарных наук путем занятия научной деятельностью, помимо управления политической и экономической жизнью страны, в частности, трудом «Тарихи арба улус» (История Четыре народа) его роль в обучении, а также то, что данный труд был переведен на узбекский язык в результате научных исследований академика Борибоя Ахмедова, анализируются последствия монгольского нашествия на нашу страну, в том числе история Бухары.

Abstract: This article examines the contribution of Mirzo Ulugbek to the development of natural and humanitarian sciences through scientific activities, in addition to managing the political and economic life of the country, in particular, the work "Tarihi arba ulus" (History of the Four Nations), his role in teaching, as well as the fact that this work was translated into Uzbek as a result of scientific research by Academician Boriboy Akhmedov, analyzes the consequences of the Mongol invasion of our country, including the history of Bukhara.

Kalit so'zlar: Ajdodlar, Mirzo Ulug'bek, O'rta Osiyo, to'rt ulus, nusxa, manbalar, astronomiya, Buxoro, sharqshunos, muzey, qubbat ul-islam, zulm, qo'zg'olon.

Ключевые слова: Предки, Мирза Улугбек, Средняя Азия, четыре народа, копии, источники, астрономия, Бухара, востоковед, музей, Куббат уль-Ислам, угнетение, восстание.

Keywords: Ancestors, Mirza Ulugbek, Central Asia, four nations, copies, sources, astronomy, Bukhara, orientalist, museum, Qubbat ul-Islam, oppression, uprising.

Xalqimizda har kim etti otasining ism-sharifini bilishi kerakligini har bir inson yaxshi biladi albatta. Zero, inson bolasi o'z ajdodlariga qarab qad rostlaydi. Bobokalonlarimizdan biri Mirzo Ulug'bekning nomini, munajjim bo'lganini, nari borsa o'z o'g'li tomonidan o'ldirilganini bilamiz, xolos. Mirzo Ulug'bek riyoziyot, falakiyot, musiqashunoslik va tarix ilmlari sohasida qalam tebratgan olim. "To'rt ulus tarixi" esa Mirzo Ulug'bek iste'dodining yana bir qirrasi — tarixchilik sohasidagi faoliyatining mahsulidir. "Tarix-i arba' ulus" Mirzo Ulug'bekning ilmiy rahbarligi va shaxsan ishtirokida yaratilib, 1425 yili yozib tamomlangan [9:3].

O'rta Osiyoning XIII - XIV asrlardagi mog'ullar bosqini to'g'risida bat afsil guvohlik beruvchi ushbu asar akademik Bo'ribboy Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahriri ostida fors tilidan B.Ahmedov, N.Norqulov va M.Hasaniylarning tarjimasi asosida 1994 yil

“Cho'lpon” nashriyotida Toshkentda nash ettirilib, tarix ixlosmandlarining e'tiboriga havola etildi. B.Ahmedov ushbu asarning o'rganilishi bo'yicha bir qator ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Jumladan, “Ulus-a arba'-I Chingiziy” (“Chingiziylarning to'rt ulusi”) va “Tarix-arba' ulus” (“To'rt ulus tarixi”) nomlari bilan mashhur bo'lib, ilk bor Yevropa sharqshunoslari orasida ushbu asarni birinchilar qatori o'rgangan va uning qisqartirilgan inglizcha tarjimasini e'lon qilgan polkovnik Mayls, etarli asosi bo'limgani holda bu kitobni “Shajarat ul-atrok” (“Turk (hoqon)larining shajarasi”) deb ataydi[2]. Ammo asarning Britaniya muzeysiда saqlanayotgan qo'lyozma nusxasida[3] “Chingizzxonning to'rt ulusi tarixi” nomli ushbu majmu'ada Turkxon ibn Yofas ibn Nuh alayhissalom avlodidan bo'l mish podishohlar nomi zikr etiladi. Mazkur risolada keltirilgan Turkistonzamin hoqonlarining nomlari Sulton as-Sa'id Ulug'bek mirzoyi shahid, - Olloh uning qabrini nurga to'ldirsin, - tarafidan bitilgan to'rt ulus hoqonlari haqidagi majmu'adan olindi”. Bu ma'lumot, ayniqsa so'nggisi birinchidan, asarning aniq nomi “Ulus-i arba'yi Chingiziy” ekanligini, ikkinchidan uning butunlay Mirzo Ulug'bekning qalamiga mansubligini ko'rsatadi.

“Tarix-i arba' ulus”ning nusxalari juda kam. Asarning to'liq nusxasi hali topilganicha yo'q. Bugungi kunda uning qisqartirilgan to'rtta nusxasi saqlangan bo'lib, uning ikkitasi Angliyada, bir nusxasi Hindistonning Bankipur shahri kutubxonasida, to'rtinchi nusxasi AQSh ning Harvard universitetida saqlanadi[7:320].

Tarixchi olim B.Ahmedov Mirzo Ulug'bek asarni yozishda bir qator tarixiy, jug'rofiy manbalar va manqiblar asosida yozilib, muallif ko'p hollarda o'z manbalarini aniq ko'rsatmaganligini qad etadi. Lekin, ayrim o'rnlarda o'zi foydalangan ba'zi asarlar va ularning mualliflari nomini ham tilga oladi. Bular orasida mashhur astronom Abu Ma'shar Balxiy (886 yili vafot etgan), yirik olim, shoir hamda sayyoh Rashiduddin Votvot (1088 – 1182), mashhur tarixchi, davlat arboblari Alouddin Otamalik Juvayniy (1226 – 1283), Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy (taxm. 1247 - 1318), Hamdulloh Mustovfiyi Kazviniy (1281 - 1344) va boshqalarning nomlari tilga olinadi. Ulug'bek mazkur asarini yozishda juda ko'p, mazmun jihatdan xilma-xil (tarix, jug'rofiya, astronomiya, nazmiy) kitoblardan keng foydalangan [7:320].

B.Ahmedov Mirzo Ulug'bek “To'rt ulus tarixi” asari qism yoki boblarga bo'limganini, ilmiy tadqiqot qilish va tarjima jarayonida asarning ma'lumot xarakteridan kelib chiqib, muqaddima va etti bobga bo'lish mumkin, degan xulosaga kelinganligini ta'kidlaydi[9:6]. Tarix-i arba ulus yoki To'rt ulus tarixi asarining **birinchi bobbi** Turkxon ibn Yofas hamda uning Turkiston zaminda podsholik qilgan avlodi (Abuljahon, Dibokuyxon, Kuyukxon va boshqa) tatar-mo'g'ul va turk qavmlari podsholari (Mo'g'ulxon, Qoraxon, O'g'izzon kabi) tarixi bayon etilgan. **Ikkinchi bobda** turk-mo'g'ul xalqlarining afsonaviy onasi Alanquva va undan tarqalgan avlod, ya'ni podsholar (Buzunjon qoon, Buqoxon, Dutuminxon, Qobulxon, Boysung'urxon, Borton bahodir, Yasugay bahodir) tarixi bayonini o'z ichiga olgan. Bu bobda ham ilm-fan uchun muhim ma'lumotlar uchraydi. Turk-mo'g'ul qavmlarining birgalikda, aralashib yashab kelganligi Turk diyori va uning boshqa qavmlari orasida tutgan mavqe'i, oddiy xalqning erga, aniqrog'i, o'z hukmdoriga biriktirilganligi, VIII asrda jaloir qavmi boshliqlarining kuchayib ketishi haqidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir.

“Tarix-i arba' ulus” ning **uchinchi bobida** buyuk jahongir Chingizzxon tarixi qismida

mo'g'ul qo'shinlarining tuzilishi, Chingizxonning oq rangdagi to'qqiz poyali tug'i, qurultoy va boshqa qabul marosimlarida amalda bo'lgan tartib-qoidalar ayniqsa e'tiborga molik. Asarning **to'rtinchi bobida** Chingchxonning U lug' yurt, ya'ni Mo'g'uliston bilan Shimoliy Xitoyni idora qilgan bevosita vorislari tarixiga bag'ishlanadi va O'qtoy qoon zamonidan to Ariq Buqo avlodi O'rdoj qoongacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. **Beshinchi bob.** Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'chixon naslidan bo'lgan 33 xon zamonida Dashti Qipchoq (hozirgi Qozog'iston, Garbiy Sibir va Volgabo'yи erlari)ning tarixidan hikoya qiladi. **Oltinchi bob** Eron bilan Ozarbayjon ustidan qariyb bir asr mobaynida (654(1256) – 754(1353) hukmronlik qilgan Elxoniylar davlati, shuningdek, Arpaxon davrida (1335–1336) nufuzi orta boshlagan Cho'poniylar (Shayx Hasan kuchak) va Jaloiriylar (shayx Hasan Buzurg) tarixini o'z ichiga oladi.

Asarning eng muhim qismi – uning **ettinchi bobidir**. Unda Chig'atoy ulusining Chingizzon zamonidan (1227 y.) to Amir Temuring hokimiyat tepasiga kelishi (1370 y.) gacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi. Ma'lumki, Chig'atoy ulusining qariyb 150 yillik (1227–1370) tarixi to'liq o'rganilmagan. Chig'atoy ulusida hukumronlik qilgan xonlar haqida juda qisqa ma'lumotlar Sharafuddin Ali Yazdiyning "Muqaddimayi zafarnoma" sida, Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror"ida ham keltirilgan. Lekin "Tarix-i arba' ulus" ularga nisbatan bir qadar to'laroq. Unda ulusda hukmronlik qilgan Chig'atoy va O'qtoy qoon naslidan (Ali sulton, Donishmandchaxon, Suyurg'atxon va Sulton Mahmudxon) bo'lgan 33 xonning tarixi qisqa tarzda bayon etilgan. Bu bobda ham e'tiborga molik ma'lumotlar ko'p.

Mirzo Ulug'bekning "Tarix-i arba' ulus" asarida Buxoro tarixi bilan bog'liq malumotlarni ham uchratamiz. Jumladan, Chingizzonning qubbat ul-isлом Buxoro ustiga yurishi to'g'risida ma'lumot beruvchi qismida Buxoro so'zi mo'g'ullar tilida "Ilm majmui" degan ma'noni anglatadi. Uyg'ur va xitoy tillarida bu butlar mavzei bo'lganligi uchun Buxor deya ataladi. Chingizzonning Buxoro ustiga yurish qilgani va jang bir necha kun davom etib ko'plab qurbanliklar bo'lgani, keyinchalik shahar imomi ulamosi va ayonlari, zodagonlari chiqib taslim bo'lganliklari, shundan so'ng Chingizzon shaharni tomosha qilish maqsadida ichkariga kirganligi kabi ma'lumotlar keltiriladi. Buxoro shahar ichidagi Jome masjidining salobati Chingizzonni hayratga solganligi va u bu imoratni Sultonning saroyimi? Deb so'raganligi, shunda odamlar bu osmon va ernen sohibining uyi deb javob bergenliklari, shundan so'ng qoon bu erni otxonaga aylantirib mayparastlik qilganligi, keyinchalik barcha shahar aholisini to'plab, tarjimon orqali ularga yashirib qo'ygan boyliklarini keltirib topshirishlarini murojaat qilgani bayon etiladi. Keyinchalik Buxoro shahriga o't qo'yilgani bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi. Buxoro taslim etilgach qo'shin to'planib Samarqand, undan so'ng Xorazm fath etiladi. Mo'g'ullar zulmiga qarshi 1238 yilda Buxoroda bo'lib o'tgan Mahmud Torobi yoshliq xalq qo'zg'oloni bo'yicha qimmatli ma'lumotlar ayniqsa diqqatga sazovor, garchi qo'zg'olon o'z maqsadiga erisha olmagan bo'lsada. Barakaxon ibn Jo'jxon Buxoroga kelib, shayx Sayfiddin Boxarziydan ilm olganligi, shayxning amri bilan Dashti Qipchoqqa ravona bo'lib, ozgina qo'shin bilan Dashti Qipchoq taxtini egallagaydi hamda odamlarni isлом diniga davat qilgani juda qimmatli ma'lumotlar bo'lib hisoblanadi.

Movarounnahr, Qashqar va Yettisuvning Chingizzon hukmronlidan to Amir Temur hokimiyatga kelgunga qadar bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tarixi O'rta asr manbalarida juda kam uchraydi. Shuning uchun Mirzo Ulug'bek tomonidan Chig'atoydan Tug'luq Temurgacha

yuz bergen tarixiy jarayonlar, shuningdek, Amir Temur davridagi qo'g'irchoq xonlar Suyurg'at mish va Sulton Mahmudxon hukmronligi davrida sodir bo'lgan voqealarning tasvirlanishi nihoyatda muhimdir [9:352].

Xulosa sifatida, Mirzo Ulug'bek mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan birga, ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan va ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirgan. Mirzo Ulug'bekning "Tarix-i arba ulus" asari yurtimizda o'rta asrlar tarixi, sodir bo'lgan voqeiliklarni o'rganishda ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. - М.: Наука, 1965.
2. The Shajarat ul-Atrak, or Geneological Tree of the Turks and Tatars, transl and abrid. By Glonel Milles, London, 1832.
3. Tarix-i arba' ulus. Britaniya muzeyi (Angliya) qo'lyozmasi. Inv. №ADD 26190.
4. Ахмедов Б. Маҳмуд ибн Вали. – Т.: Фан, 1977.
5. Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (письменные источники) - Т.: Фан, 1985.
6. Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
7. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. - Т.: "Ўқитувчи" 1994. - 431 б.
8. Ахмедов Б. Улугбек. Историческая повесть. - Т.: Камалак, 1994.
9. Улугбек, Мирзо. Тўрт улус тарихи. (Б. Ахмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳририда; Форс тилидан Б. Ахмедов ва бошқ. тарж) — Т.: Чўлпон, 1994 - 352 б.



PEDAGOGIK FIKIRLAR TARAQQIYOTIDA “POSHSHOXOJA IBN ABDUVAHOBXOJA” ASARLARINING O’RNI

*MUZAFFAROVA Farida Muxtor qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti*

Annotasiya. Ushbu maqolada XVI asrda yashab ijod etgan Poshshoxoja Ibn Abduvahobxoja hayoti va ijodi, uning ilm-fan namoyandasi sifatidagi o‘ziga xos xizmatlari, hamda uning ulug’ shayx, shoir, shayxulislom, sadr, alloma, tarbiyachi, ko‘plab fan sohalarida erishgan yutuqlari to‘g‘risida ilmiy ma'lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro xonligi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy mazmun, shoir, g‘azal, ilm, fan, pedagogik fikr, madaniyat, ijtimoiy hayat, tarbiya, axloq.

Annotation. This article brings scientific information about the life and work of Poshshokhaja Ibn Abduwahobhaja, his special services as a representative of Science, and his achievements in many fields of science, including the great Sheikh, poet, shaykhulislom, sadr, alloma, educator.

Keywords: Bukhara Khanate, socio-political, moral-educational content, poet, Ghazal, science, science, pedagogical thought, culture, social life, upbringing, morality.

Аннотация. В этой статье представлена научная информация о жизни и творчестве Пашходжи Ибн Абдувахабходжи, жившего и творившего в XVI веке, о его заслугах как деятеля науки, а также о его достижениях во многих областях науки, таких как великий Шейх, поэт, Шейхулислам, Садр, аллома, педагог.

Ключевые слова: Бухарское ханство, социально-политическое, нравственно-воспитательное содержание, поэт, Газель, наука, Наука, педагогическая мысль, культура, общественная жизнь, воспитание, мораль.

Bugungi kunda yurtimizda qadimiylar tariximiz, milliy an'analarimiz boy madaniyatimizni yanada yuksaltirish, buyuk allomalarimiz ilmiy meroslarini chuqur o‘rganish va uni kelajak avlodlarimizga etkazish, yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tmishda yashab o‘tgan buyuk allomalarimizdan qolgan ilmiy merosni har tomonlama o‘rganish, ularning turli tomonlaridan jamiyatimizda, kelajak avlodning ruhiy – ma’naviy kamoloti yo’lida foydalanish ayniqsa bugungi kunimiz uchun dolzarbdir. Yoshlarimizni ma’naviy kamolotga etaklovchi, komil inson bo‘lib etishishlarida, jamiyatda munosib o‘rin egallab, badiiy – estetik dunyoqarashlarining shakillanishida ayniqsa pandnoma asarlarning o‘rni beqiyos.

XVI asrda yashab ijod qilgan ulug’ mutafakkir adib va shoir Poshshoxoja ibn Abduvahobxoja o‘zining muhim, ijtimoiy – siyosiy, axloqiy – ta’limiy mazmunda bitilgan kichik nasriy hikoyalari bilan shuhrat qozongan yirik ijodkordir. Uning pandnoma ruhda yozilgan eng mashhur asarlaridan “Miftoh ul – adl” va “Gulzor” asarlari badiiy – estetik jihatdan o‘ziga xos asarlardir.

“Miftoh ul – adl” (“Odillik kaliti”) asari mumtoz o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallaydi. Asar XVI asrda yaratilgan, asarning muqaddimasidan ma'lum bo‘lishicha,

bu asar Shayboniyxonning o'g'li shahzoda Temurbekka bag'ishlangan. "Gulzor" ga kiritilgan hikoyalar har jihatdan "Miftoh ul - adl"ning hikoyalariga tamomila muvofiqdir. Sharq an'anasi bo'yicha, asarning oxiriga "Kitobning so'nggi" deb qo'yiladi. "Miftoh ul - adl" ning qo'lyozma nusxalarining so'nggida esa bu yozuv yo'q va odatdagi "Bismilloh..... dan keyin "Gulzor" asari boshlanadi. "Gulzor" ning oxirida esa "Kitobning so'ngi" berilgan.

"Miftoh ul - adl" va "Gulzor" asarlari pand – nasihat ruhida yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansub asar hisoblanadi. Turkiy tildagi yozma na'munalarida bu hodisa (ya'ni pandnomalar yaratish an'ansi) ilk bor Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida o'z ifodasini topgan bo'lib, ushbu asar shaxs ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan didaktik manbadir. Xojaning asosan kichik nasriy hikoyalardan tarkib topgan "Miftoh ul - adl" va "Gulzor" asarlari Kykovusning "Qobusnoma", Sa'diy Sheraziyning "Guliston", "Bo'ston", turkiy mumtoz adabiyotning eng yirik vakili Alisher Navoiyning "Mahbub ul – qulub" asarlariga o'xshab ketadi.

Xojaning "Miftoh ul-adl" asari 1508-1510-yillar orasida yozilgan va Shayboniyxonning o'g'li Temur Sultonga bag'ishlangan. U turli ijtimoiy-axloqiy mavzularga bag'ishlangan15 bobli kitobdir. Yozuvchi har bir bob mavzusiga oid fikr-mulohazalarini nazariy jihatdan bayon qilib, so'ngra fikrlarini tasdiqlash uchun turli masallar va hikoyatlar keltirib o'tadi. Asarning asosiy qismini xalq orzu qilgan insofli, adolatli, odil shoh tasvirlangan bir qator hikoyatlar tashkil etadi. Asar sodda xalqona tilda yozilgan bo'lib, unda tushunilmaydigan so'zlar deyarli uchramaydi, shuningdek, bayon qilish usulida ixchamlik va aniqlik bor.

Asarda yozma va og'zaki adabiyotda mashhur bo'lib ketgan Iskandar, No'shiravon, Mahmud G'aznaviy, Bahramshoh, Anushervon, Nuh va boshqalar nomi bilan bog'liq hikoyalar asosiy o'rinni egallaydi. To'plamdagagi hikoyatlarning har biri biron axloqiy, siyosiy yoki diniy maslahat berishni maqsad qiladi. Mazkur asarlardaadolat bilan ish ko'rganlar faoliyati madh etiladi. Aksincha, ish yuritganlar xatti-harakatlari qoralanadi. Ayniqsa, adib Iskandar va No'shiravon kabi an'anaviy obrazlarniadolat timsoli sifatida ulug'lashga harakat qilgan. Bu obrazlar ishtirokidagi hikoyatlarida yurt boshqaruvchilariningadolat, odillik, to'g'rilik bilan ish ko'rishi oddiy xalq osoyishtaligi, farovon yashashining garovi ekanligini ko'rsatib, hokimiyat tepasida turgan u xoh shoh bo'lsin, xoh vaziradolat bilan ish tutishi lozimligini uqtiradi.

Adib hikoyalaridaadolat masalasi birinchi o'rinda turadi. Deyarli, barcha asarlarida muallifadolat tushunchasini turli jihatlardan yoritishga harakat qiladi. "Podshoh va zohid", "Mahmud G'aznaviy va boyqush", "Sulton Mahmud G'aznaviy, vazir va Ayoz", "Shayx Bahlul va Xorun ar-Rashid", "Sulaymon, pashsha va el" kabi hikoyatlarida bosh g'oya sifatidaadolat masalasi qo'yilgan. "Podshoh va zohid" hikoyatida Zohid bir soatlikadolatga 20 martalik haj savobini almashtirishga tayyorligini aytadi. Podshohxoja hikoyalari katta ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga molik asarlardir.

Ulaming zamiriga chuqur insonparvarlik, bag'rikenglik,adolatparvarlik g'oyalari singdirilganligi bilan hozirgi kunda eskirgan, podshohlar, vazirlar, darveshlar, tarixiy shaxslar bilan bog'liq sujetlar asosida yaratilganiga qaramay, o'zining axloqiy-didaktik, ijtimoiy-zamonaviy qimmatini yo'qotmagan. Ular bugun va kelajak uchun birday xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Poshshoxo'ja "Miftoh ul-adl" va "Gulzor"dan. ЎзССР Davlat badiiy adabiyot nashriyoti.-Toshkent.1962.
2. Xojaning "Miftoh ul-adl" asari № 7796 inventar raqamli qo'lyozmasi.
3. Mirzaaxmedova M. Xoja. –Toshkent: "Fan", 1975.
4. Zohidov V. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" haqida. -Toshkent, 1961.
5. М.Холмурадова. "Қутадғу билиг" лексикаси. Фил.фан. бўйича Фалсафа доктори (PhD)дис-Тошкент, 2018.



<p>BUXORO INNOVATSION TA'LIM VA TIBBIYOT UNIVERSITETI ILMIIY AXBOROTNOMASI</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2-son (2025-yil, Fevral)</p> <p>Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan</p>	<p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Orginal maket uchun mas’ul: Mirshod SATTOROV</p> <p>Maqolalarni qabul qiluvchi: Nusratov ANVAR</p>	<p>Jurnal tahririya kompyuterida sahifalandi.</p> <p>Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 15.02.2025</p> <p>Tezkor bosma usulda bosildi.</p> <p>Adadi – 5,25 nusxa</p> <p>Buyurtma № 9 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.</p> <p>Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24-uy.</p>
---	---	---

Eslatma: Jurnal “BUXORO INNOVATSION TA'LIM VA TIBBIYOT UNIVERSITETI” MCHJ va “BUXORO DETERMINANTI” MCHJ Kamolot nashriyoti tasarrufidadir.

Jurnaldan ko‘chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi!



zenodo creative commons

OpenAIRE

Google Scholar

SLIB.UZ
Scientific library of Uzbekistan

DRJI

ANTIPLAG

CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

amazon
publishing

<https://scientificjournal.uz/>

